
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi ANSO Boshqaruv kengashiga saylandi

Pekin shahrida bo‘lib o‘tgan "Xalqaro ilmiy tashkilotlar alyansi (ANSO)"ning IV Bosh assambleyasida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mazkur tashkilotning eng oliy boshqaruv organi — Governing Board (Boshqaruv kengashi) tarkibiga saylandi.



O‘zbekiston Fanlar akademiyasining ANSO Boshqaruv kengashiga saylanishi mamlakatimiz fanining xalqaro maydondagi mavqei va nufuzli ilmiy hamkorlikdagi faol ishtirokiga berilgan yuqori bahodir.

Bu xalqaro e'tirof O‘zbekistonning barqaror rivojlanish, ilmiy bilim almashish va yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi tashabbuslariga bo‘lgan xalqaro ishonchni ifodalaydi.

Saylov natijalari e’lon qilingach, Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, professor Sirojiddin Mirzayev tashkilot a’zolariga bildirilgan ishonch uchun minnatdorlik izhor etdi va O‘zbekiston kelgusida ham Osiyo va boshqa mintaqalarda ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, ilm-fanni rivojlantirish va barqaror kelajak yo‘lida ilmiy-texnologik hamjihatlikni chuqurlashtirishga hissa qo‘shishini ta’kidladi.







Ma’lumot o'rnida: ANSO — Alliance of International Science Organizations (Xalqaro ilmiy tashkilotlar alyansi) 2018-yilda Xitoy Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan bo‘lib, u Osiyo, Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining 90 dan ziyod yetakchi ilmiy muassasalarini birlashtiradi. ANSO ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish, innovatsiyalar va ilm-fan orqali jahon hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlarni amalga oshirmoqda.